

VOKAL IJROCHILIGIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK USULLARI.

Xalqaro Nodik universiteti

II-kurs Magistranti

Umarova Zarnigorhon Rahmonali qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada vokal ijrochiligi jarayonida uchraydigan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etishning pedagogik usullari ilmiy-nazariy jihatlarini hamda vokal ijrochilarida ko'p uchraydigan muammolar – noto'g'ri nafas olish, ovoz apparatidan noto'g'ri foydalanish, intonatsion madaniyati bilan bog'liq qiyinchiliklar imliy asosda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: vokal, ijrochiligi, ovoz, texnika, nafas, artikulyatsiya, diksiya, intonatsiya, mashqlari, ijrochilik, mahorati, yondashuv, rezonans.

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы, встречающиеся в процессе вокального исполнения, и научно-теоретические аспекты педагогических методов их устранения, а также наиболее распространенные проблемы, с которыми сталкиваются вокалисты, – неправильное дыхание, неправильное использование голосового аппарата и трудности, связанные с культурой интонации.

Ключевые слова: вокал, исполнение, голос, техника, дыхание, артикуляция, дикция, интонация, упражнения, исполнение, мастерство, подход, резонанс.

Annotation. This article analyzes the main problems encountered in vocal performance and the scientific and theoretical aspects of pedagogical methods for addressing them. It also examines the most common issues faced by vocalists: improper breathing, incorrect use of the vocal apparatus, and difficulties related to intonation.

Keywords: vocals, performance, voice, technique, breathing, articulation, diction, intonation, exercises, performance, mastery, approach, resonance.

Vokal san'ati insonning tabiiy ovoz imkoniyatlariga asoslangan holda shakllanadigan murakkab ijrochilik jarayonidir. Musiqa san'atining ushbu yo'nalishi ijrochidan nafaqat musiqiy eshituv, balki mukammal vokal texnika, to'g'ri nafas olish, artikulyatsiya va sahna madaniyatini ham talab qiladi. Vokal ijrochiligi jarayonida ovoz apparatining to'g'ri ishlashi, nafasni boshqarish, tovushning rezonansini shakllantirish va aniq intonatsiyani saqlash muhim ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, vokal bilan shug'ullanayotgan ko'plab ijrochilar o'quv jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday muammolar ko'pincha noto'g'ri nafas olish texnikasi, ovoz apparatiga ortiqcha yuklama berish, artikulyatsiya va diksiya kamchiliklari hamda sahnada o'zini erkin tutish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli vokal pedagogikasida ushbu muammolarni ilmiy asosda o'rganish va ularni bartaraf etishning samarali metodlarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi vokal ijrochiligida uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan pedagogik usullarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Vokal ijrochiligida muvaffaqiyatga erishish uchun ijrochining ovoz apparati to'g'ri ishlashi va vokal texnikasi mukammal shakllangan bo'lishi zarur. Biroq vokal ta'limi jarayonida bir qator muammolar uchrab turadi. Nafas olish texnikasi bilan bog'liq muammolar vokal ijrochiligida eng muhim omillardan biri - to'g'ri nafas olishdir. Nafas olish jarayoni noto'g'ri tashkil etilganda ovoz barqarorligi buziladi, tovush kuchsiz yoki notekis chiqadi. Ko'plab boshlovchi ijrochilar ko'krak orqali nafas olishga odatlanib qolgan bo'ladilar. Vokal ijrochiligida diafragma orqali chuqur nafas olish eng samarali usul hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun maxsus nafas mashqlari, diafragma faoliyatini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar hamda vokal mashqlari tizimli ravishda qo'llanilishi lozim.

Artikulyatsiya - bu tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish jarayonidir. Diksiya esa matnning tushunarli va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Vokal ijrochiligida ushbu omillar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tinglovchi nafaqat musiqani, balki matn mazmunini ham aniq tushunishi kerak. Artikulyatsiya va diksiya bilan bog'liq

muammolarni bartaraf etish uchun maxsustalaffuz mashqlari, tez aytishlar, lab va til mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar qo'llaniladi. Intonatsion aniqlik muammolari vokal ijrochiligida tovush balandligini aniq saqlash – intonatsiya deb ataladi. Intonatsion xatolar ko'pincha musiqiy eshituvning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki noto'g'ri vokal texnikasi natijasida yuzaga keladi. Bunday muammolarni bartaraf etishda solfedjio mashqlari, intervallarni kuylash, pianino jo'rligida mashg'ulotlar olib borish samarali hisoblanadi.

Ovoz apparatidan noto'g'ri foydalanish undagi ortiqcha zo'riqish berish ovozning tez charchashiga va hatto vokal kasalliklariga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli vokal mashg'ulotlari jarayonida ovoz gigienasiga amal qilish muhimdir. Ovoz gigienasi ovoz paychalari va butun ovoz apparatini sog'lom saqlashga qaratilgan choralar va odatlarni o'z ichiga oladi. Bu qoidalar orqali: ovoz paychalari shikastlanishining oldi olinadi, ovozning jarangdorligi saqlanadi, uzoq vaqt davomida sifatli ijro qilish imkoniyati yaratiladi. Ovozni ortiqcha zo'riqtirmaslik, juda baland ovozda gapirish yoki uzoq vaqt baqirib kuylash ovoz paychalariga zarar yetkazishi mumkin.

Diafragma orqali nafas olish ayol ovozning erkin va tabiiy chiqishiga yordam beradi, erkak ovozlar esa asosiy kuchni qoringa beradilar. Sovuqdan saqlanish, sovuq ichimliklar, sovuq havo yoki shamollash ovoz apparatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ovozni qizdirish kuylashdan oldin maxsus vokal mashqlar, ya'ni vokalizlar bajarish ovoz paychalarini tayyorlaydi. Ovoz apparati ham dam olishga muhtoj. Uzoq mashg'ulotlardan keyin ovozga dam berish kerak. Sunday paytda zarurat bo'lganda past ovozda gapirish yoki imo ishoralar orqali suhbatdoshga o'z so'zini tushuntirish albatta maqsadga muvofiq boladi. To'g'ri ovqatlanish, yetarli suv ichish va zararli odatlardan voz kechish ham ovoz sog'lig'iga ta'sir qiladi. Pedagogika nuqtai nazaridan ahamiyatiga keladigan bo'sak musiqa ta'limida pedagog o'quvchilarga ovoz gigienasi qoidalarini o'rgatishi zarur. Bu ovoz apparatini himoya qiladi, vokal texnikani to'g'ri shakllantiradi, ijrochilik faoliyatining uzoq davom etishini ta'minlaydi.

Ovoz gigienasi - bu ovoz apparatini sogʻlom saqlash va undan toʻgʻri foydalanish qoidalaridir. U vokal taʼlim jarayonida muhim pedagogik ahamiyatga ega boʻlib, oʻquvchining ovoz salomatligi va ijrochilik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagog oʻquvchining ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashgʻulotlarni tashkil etishi, ovoz diapazonini asta-sekin kengaytirib borishi lozim. Vokal pedagogikada oʻquvchining individual ovoz xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik tamoyillardan biridir. Har bir oʻquvchining ovoz diapazoni, tembri, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va diksiya darajasi, fiziologik va psixologik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun pedagog mashgʻulotlarni tashkil etishda oʻquvchining tabiiy ovoz imkoniyatlariga mos metodlarni tanlashi zarur. Bu yondashuv oʻquvchining ovoz apparatini ortiqcha zoʻriqtirmasdan rivojlantirishga yordam beradi. Ovoz apparati quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

1. Nafas olish apparati – oʻpka, diafragma, koʻkrak qafasi.
2. Ovoz hosil qiluvchi apparat – ovoz paychalari, yaʼni laringks.
3. Rezonatorlar – ogʻiz boʻshligʻi, burun boʻshligʻi, bosh rezonatorlari

Pedagog mashgʻulot jarayonida ushbu tizimlarning toʻgʻri ishlashini shakllantirishi kerak. Toʻgʻri nafas olish, rezonans va artikulyatsiya vokal ijrochilikning asosiy elementlari hisoblanadi. Oʻquvchining ovoz diapazonini aniqlashda mashgʻulotlarning dastlabki bosqichida pedagog oʻquvchining eng past nota eng yuqori nota qulay diapazonlarini aniqlaydi. Bu jarayon vokal mashqlari orqali amalga oshiriladi. Ovoz diapazonini aniqlash orqali oʻquvchi uchun mos: vokal mashqlar, repertuar, ijro texnikalari, tanlanadi. Pedagog mashgʻulotlarni quyidagi bosqichlar asosida tashkil qilishi tavsiya etiladi:

1. Tayyorlov bosqichi - nafas mashqlari, artikulyatsiya mashqlari, ovozni qizdirish, yaʼni vokalizlar.
2. Asosiy bosqich, diapazonni kengaytirish mashqlari, rezonans ustida ishlash, intonatsiya aniqligini rivojlantirish,
3. Yakuniy bosqich, repertuar bilan ishlash, ijro uslubini shakllantirish, badiiy ifoda ustida ishlash.

Pedagog har bir o‘quvchiga individual yondashishi kerak. Bunda yosh xususiyatlari, ovoz rivojlanish bosqichi, musiqiy eshitish qobiliyati, psixologik holat, hisobga olinadi. Individual yondashuv o‘quvchining vokal salohiyatini to‘liq ochishga yordam beradi. Ovoz salomatligini saqlash hamda vokal pedagog mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga ovoz gigienasini ham o‘rgatishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi, jumladan ovozni zo‘riqtirmaslik, sovuq ichimliklardan ehtiyot bo‘lish, to‘g‘ri nafas olishni shakllantirish, mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish zarur. Bu omillar ovoz apparatining sog‘lom rivojlanishini ta‘minlaydi. Vokal ijrochiligida uchraydigan muammolar ko‘pincha noto‘g‘ri vokal texnikasi, yetarli mashg‘ulot olib borilmasligi yoki pedagogik yondashuvning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni bartaraf etishda ilmiy asoslangan pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Vokal ta‘limi jarayonida nafas olish texnikasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini keng qo‘llash.
2. Artikulyatsiya va diksiya ustida ishlash uchun maxsus talaffuz mashqlari va metodik qo‘llanmalardan foydalanish.
3. Intonatsion aniqlikni rivojlantirish maqsadida solfedjio mashg‘ulotlarini muntazam ravishda olib borish.
4. Ovoz apparatini asrash va rivojlantirish uchun vokal gigienasi qoidalariga qat‘iy rioya qilish.
5. Talabalarning sahna madaniyatini rivojlantirish maqsadida amaliy konsert mashg‘ulotlari va ijroiylar tajribalarni ko‘paytirish.

Shuni aytib o‘tish joizki, vokal ijrochiligining pedagogik jarayonini takomillashtirishga hamda ijrochilarning kasbiy mahoratini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchining ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishi vokal ta‘lim samaradorligini oshiradi. Individual yondashuv, to‘g‘ri metodika va ovoz gigienasiga rioya qilish o‘quvchining ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim o‘rin o‘ynaydi. Sahna madaniyati va psixologik omillar. Ba‘zi ijrochilar sahnaga chiqqanda hayajon tufayli o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydilar. Bu holat ijro

sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sahna madaniyatini rivojlantirish uchun sahna mashg'ulotlari, konsert amaliyoti, aktyorlik elementlari va psixologik tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Dmitriyev L.B.** Vokal san'ati asoslari. – Moskva: Muzyka, 2007.
- 2. Morozov V.P.** Vokal eshituv va ovoz texnikasi. – Moskva: Nauka, 2002.
- 3. Menabeni A.G.** Vokal pedagogikasi metodikasi. – Moskva: Prosvesheniye, 1987.
- 4. Yusupov R.** Vokal ijrochiligi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
- 5. Abdullayev A.** Musiqa pedagogikasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
- 6. Nazirov T.** Vokal san'ati va ijrochilik mahorati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
- 7. Sokolov A.** Vokal texnikasi asoslari. – Sankt-Peterburg: Lan, 2004.
- 8. Garcia M.** Complete Treatise on the Art of Singing. – New York: Da Capo Press, 1984.
- 9. Mckinney J.C.** The Diagnosis and Correction of Vocal Faults. – Illinois: Waveland Press, 2005.
- 10. Miller R.** The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique. – New York: Schirmer Books, 1996.
- 11. Ware C.** Basics of Vocal Pedagogy. – New York: McGraw-Hill, 1998.
- 12. Appelman D.** The Science of Vocal Pedagogy. – Indiana University Press, 1986.
- 13. Abdurashidov M.** Musiqiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
- 14. Karomatov F.** O'zbek musiqa san'ati tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2009.